

Qurilish ishlari



RAQAMLAR:

- Qurilish-montaj ishlari hajmi – **473,5** mlrd. so'm
- Yirik qurilish pudrat tashkilotlarining ulushi **-4,6 foiz**
- Kichik korxonalar va mikrofirmalar -**70,9 foiz**
- Qurilishda norasmiy sektorning ulushi-**24,5 foiz**


2018 yil yanvar-sentyabr oylari

Joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatda 473,5 mlrd. so'mlik **qurilish-montaj ishlari** bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,6 foizni tashkil etdi va 2017 yilning mos davriga nisbatan 7,6 foiz punktga o'sgan.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan qurilish ishlari hajmi 21,6 mlrd.so'mni yoki 96,1 foizni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 foiz punktga pasaygan.


Ko'pgina shahar va tumanlarda o'tgan yilning mos davriga nisbatan yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish-montaj ishlari hajmini kamayishi kuzatildi. Shu jumladan, Shirin shahrda qurilish - pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1,3 mlrd. so'mni, o'sish sur'ati 26,2 foizni, mos ravishda, Mirzaobod tumanida – 4,5 mlrd.so'm yoki 78,4 foizni tashkil etdi.

Qurilish ishlari (mlrd.so'm)



■ Yanvar-sentyabr 2017 ■ Yanvar-sentyabr 2018


**Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati
2018 yil yanvar-sentyabr uchun**



**2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari
quyidagicha ifodalanadi:**

| | <i>Jami</i> | |
|-------------------------|-------------------|-----------------------------------|
| | <i>mldr. so'm</i> | <i>o'sish sur'ati, foizda</i> |
| Viloyat bo'yicha | 473,5 | 107,6 |
| Guliston sh | 156,0 | 123,9 |
| Shirin sh | 25,5 | 116,2 |
| Yangier sh | 39,2 | 100,3 |
| Boyovut | 37,1 | 105,6 |
| Guliston | 26,0 | 100,6 |
| Mirzaobod | 40,9 | 102,6 |
| Oqoltin | 31,2 | 109,3 |
| Sardoba | 13,5 | 101,8 |
| Sayxunobod | 20,6 | 129,6 |
| Sirdaryo | 53,0 | 103,5 |
| Xovos | 30,5 | 70,1 |


**2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlari
umumiy hajmida hududlarning ulushi
(umumiy hajmga nisbatan %da)**



Hududlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Guliston shahrida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining 32,9 % tashkil etdi, Sirdaryo tumanida 11,2 % ni, Yangier shahrida bajarilgan qurilish ishlari 8,3 % ni, va Mirzaobod tumanida 8,6 % ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Sardoba tumanida bu ko`rsatkich eng past 2,9 % ni va Sayxunobod tumanida 4,4 % ni tashkil etdi.

**Yanvar - sentyabr oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish
ishlari (mlrd.so'm)**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 71,8% ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga ko'paydi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 17,5% ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 10,7% to'g'ri keldi hamda o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga ko'paydi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi





2017 yil yanvar-sentyabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Mulkchilik shakllari

Mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 441,1 mlrd.so'mlik qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmining 93,1 foizini tashkil qildi va ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 foiz punktiga o'sdi.



Sirdaryo viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

G.Muxraximova
(0371) 230-86-27